

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIVA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI**

Kompyuter injiniringi fakulteti
Axborot ta'lim texnologiyalari kafedrası

” Moodle dasturida forum va chat tashkil qilish”
mavzusida

KURS ISHI

Rahbar:

Axborot ta'lim texnologiyalari
kafedrası o'qituvchisi

F.Masharipova

«___» _____ 2016 y.

Bajardi:

921-14 guruh talabasi

I. Iskandarova

«___» _____ 2016 y.

Urganch-2016 yil.

Mundarija

Kirish	3
I-BOB. Nazariy qisim va mavzuning dolzarbligi	5
1.1. Ta`lim sohasida Internet texnologiyalaridan foydalanishni.....	5
metodik tizimi	5
1.2. Mavzuning dolzarbligi	12
1.3. Masalaning qo'yilishi.....	14
II-BOB. Asosiy qism.....	15
2.1 Moodle dasturi haqida.....	15
2.2 Moodle dasturida forum tashkil qilish asoslari	26
2.3 Moodle dasturida chat tashkil qilish asoslari	27
2.3. Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari kursida foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish.....	28
Xulosa	29
Foydalanilgan adabiyotlar.....	30
Ilova	31

Kirish

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ta`limda yangi masofaviy ta`lim yo`nalishining paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Hozirgi kunda Respublikamiz ta`lim muassasalarida masofaviy ta`lim joriy ishiga katta e`tibor berilmoqda. Shu bilan birga fan – texnika taraqqiyoti bilimlar, ko`nikma, malaka tarkibining o`zgarishi hamda hajmining uzluksiz ravishda ortib borishi bugungi kun mutaxassislariga jiddiy talablar qo`yish bilan xarakterlanmoqda.

Bugungi kunda masofadan o`qitish tizimlarida axborotlarni uzatish va namoyish etish yuqori sifatda tashkil etilgan.

Masofadan o`qitish usulida o`qituvchi bilan talaba bir-biridan masofa bilan ajralgan bo`lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o`qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo`ladigan elektron pochta va Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Masofali o`qitish texnologiyasi, o`qituvchi va bilim oluvchi orasidagi o`zaro munosabatini qamrab olgan o`qitishning interaktiv kommunikatsiya texnologiyasidir. O`qituvchi bilim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga oladi. Bilim oluvchi esa shu xususiyatlarga mos ravishda bilim olish imkoniga ega.

Bu bilim oluvchiga materialni chuqur va mukammal o`rganish imkonini beradi. Mamlakatimizda “Qadirlar tayyorlash milliy dasturi” ga asosan Masofali o`qitishga katta etibor qaratilmoqda. Bu orqali yoshlarimiz zamon bilan hamnafas bo`lgan holda chuqur bilimga ega bo`lishlarini osonlashtiradi.

I-BOB. Nazariy qisim va mavzuning dolzarbligi

1.1. Ta'lim sohasida Internet texnologiyalaridan foydalanishni

metodik tizimi

Yuqori sifatdagi va yuqori texnologik axborot-o'qitish muhitini yaratish, asosan, ta'lim tizimining texnologik bazasini tubdan modernizatsiyalash, jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta'lim tizimiga o'tish imkoniyatini yaratadigan yetarlicha murakkab bo'lgan texnik masala sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, axborot ta'lim muhitini yaratish faqat texnik masala emasligini inkor etib bo'lmaydi. Uni yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun barcha ta'lim tizimining ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik potensialini to'liq ishga solish kerak bo'ladi. Shu munosabatda, zamonaviy axborot-ta'lim muhiti ishlatilayotgan sharoitda pedagogika munosabatlarini ham hisobga olmoq lozim.

Axborot-ta'lim muhiti ta'riflari to'plamining tahlilidan shu xulosaga kelish mumkinki, bu axborot, texnik, o'quv-uslubiy podsystemalar jamlanmasi bo'lib, o'quv jarayoni va uning qatnashchilarini ta'minlashga maqsadli qaratilgandir.

Axborot ta'lim muhiti – pedagogik tizim va uning ta'limotidan iboratdir, ya'ni, moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, me'yoriy-xuquqiy, boshqaruv va marketing tizim ostilaridir. Nazariy jihatdan butun Axborot o'quv markazi (AO'M) ning negizi aynan pedagogik tizimdan iboratdir. AO'M deb ataluvchi yangi tuzilmadagi pedagogik jarayonlarni tadqiq etuvchi pedagogika fanining yangi yo'nalishi haqida gapirish mumkin. Shunday yangi yo'nalishni biz, shartli ravishda "Elektron pedagogika" deb ataymiz.

O'qitish metodikasiga muvofiq har bir o'quv guruhi uchun o'quvchilarning jamoa vositasi kabi elektron auditoriyasi yoki forumlari yaratilishi (ochilishi) mumkin. Bunda o'quv yurtining virtual vakilligi (VV) o'quv jarayonini olib borish uchun zarur bo'lgan o'quv va ma'muriy resurslarni shakllantiradi, ushbu resurslar u yoki boshqa fan bo'yicha o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ishlab chiqarish moduli deb nomlanadi va zaruriyatga qarab yaratiladi. Bunday modullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ayrim fanlar bo'yicha o'quv guruhining ChAT (on-line auditoriyalar - seminarlari maslahatlar);

- fanlar bo'yicha telekonferensiyalar (forumlar) (on-line auditoriyalar - seminarlari maslahatlar);

- e'lonlar taxtasi;

- yakka tartibda (ta'riflanadigan) maslahatlar tizimi.

O'quv muassasaning VVdagi bunday modullar soni o'qituvchilar ehtiyojlari va ular tomonidan amalga oshiriladigan o'qitish metodikasi bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish kerak.

Shunday qilib, axborot-ta'lim muhiti pedagogik tizim kabi quyidagi funksiyalar yuklanadigan o'qituvchining yangi rolini belgilaydi:

- bilish jarayonini muvofiqlashtirish;

- o'qitiladigan fanni to'g'irlash;

- yakka tartibda o'qitish rejasini tuzishda maslahat berish;

- o'quv rejasi, o'quv loyihalariga rioya qilish.

O'qituvchi-konsultant (yoki tyutor) o'z bilimlarini namoyish qilish, texnologik, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarni olish, maksimal pedagogik natijalarni olishi kerak.

Zamonaviy jamiyatda Internet orqali masofaviy ta'limning rivojlanishiga quyidagi ikki sababni ko'rsatish mumkin:

1. Yosh avlodlarning ta'lim potensialiga bo'lgan talabning ortishi, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, jamiyatdagi bilimlarni tezkor almashinuvi, insonni butun umri davomida o'qishi kerakligi, uzluksiz ta'limni zaruriylashishi.

2. Internet tarmog'ining va kompyuter texnologiyalarining rivoji, ishlarni kompyuter va kompyuter dasturlari orqali bajarilishi soddalashishi.

Internetning o'qituvchi uchun qulay bo'lgan omillari qaysilar ?

Bu omillarini asosiylarini sanab o'tamiz:

- ✓ Tijorat hamda notijorat tashkilotlarining Internet tarmog'idagi masofaviy ta'limini o'zlashtirishi jaroyonida o'z malakasini oshirish.

- ✓ Mustaqil ravishda tarmoqdagi axborotlar orqali o'z malakasini oshirish.
- ✓ Dars o'tish uchun Internet tarmog'idan materiallar qidirish.
- ✓ Hokimiyat serveridan normativ hujjatlar qabul qilish.
- ✓ Yangi pedagogik texnologiyalarga oid axborotlar olish.
- ✓ Talabnomalar jo'natish, konferensiya, tanlov va grantlar, hisobot va konferensiyalarga chiqish haqidagi axborotlarni olish.
- ✓ Dasturiy ta'minot olish.
- ✓ O'z ishlarini chop qilish va o'z ishlari to'g'risida ma'lumotlar yuborish.
- ✓ Hamkasb va do'stlar bilan xat yozishmalar. Fikrdoshlar va hamkasblarni boshqa shaharlar va davlardan qidirish.
- ✓ Internet magazinlarida savdo qilish.
- ✓ Ish qidirish.

Internet texnologiyalarini ta'lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mumkin:

- ✓ bu fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi;
- ✓ Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar,
- ✓ o'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi;
- ✓ mustaqil ta'lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;
- ✓ amaliy malaka samaradorligini oshishi.

Vaqt o'tishi bilan Internetda eng muhim fanlarning eng yaxshi ma'ruzalari chop qilinishi kutilmoqda. O'qituvchilar bu ma'lumotlardan o'z darslariga asos sifatida foydalanishlari mumkin. Ma'lumotlar jo'natishda tezlikning ortishi bugungi matn ko'rinishidagi Internetni multimediyali interaktiv telekanalga aylanishi boshorat qilinmoqda. Bugungi kunda Internetdan ajralishlik mukammal bo'lgan ta'limdan mahrum bo'lishlikdir.

Yangi metodlar va texnologiyalar bilan birga olib boriladigan masofaviy o'qitish metodi nazariy pedagogika va ta'lim amaliyotiga yangi tushunchalar va

atamalarni kiritadi, ularga:

- virtual klass (guruh);
- O'qitishni quvvatlash (o'quvchilarni quvvatlash);
- O'quv telekommunikatsion loyihalar;
- Teskari aloqa;
- Dialogli texnologiya;
- Kompyuterli aloqa;
- Telekonferensiya;
- Kordinator, n moderator, telekommunikatsion loyihaning fasilitatori

(telekonferensiya) va boshqalar.

Telekommunikatsiyaviy o'quv loyihasi- Masofaviy ta'lim(MT) transformatsion modelning birdan-bir kelajakli shakli bo'lib, qandaydir modeli maqsadga yetish uchun yo'naltirilgan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan. U o'quvchilar oldiga qo'yiladigan qandaydir ilmiy yoki ishlab chiqarishni modellashtirish maqsadidagi loyihadan iborat. Bunday modeldan maqsad o'quvchilarning loyihalari faoliyatida u to'plovchi bo'lib, ularda jamoat bo'lib ishlashdagi bilim va ko'nikmalarni faollashtiradi.

O'quv telekommunikatsion loyihaning zaruriy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- uning vaqtli aniqligi va chegaralanganligi (ikki haftadan uch oygacha)
- loyihaning barcha qatnashchilari orasida axborot almashtirish uchun kompyuterli telekommunikatsion tarmoqlar va dasturli vositalardan foydalanish, ular ko'pincha virtual yoki kvazivirtual guruhni tashkil etadi.
- loyiha kordinatori tomonidan o'rnatiladigan o'quvchilar orasidagi aniq faoliyatning zarurligi.

Masofaviy o'qitishdagi teskari aloqa—mos kibernetik tushunchaning umumlashuvi-masofadagi o'quvchiga uni baholash bosqichida, pedagog tomonidan yuboriladigan axborotlar oqimi, uning harakati, o'quvchining muvaffaqiyatiga pedagog reaksiyasi va uni faoliyatining bahosi (ma'qullash yoki

ma'qullamaslik) va boshqalardan iborat.

Rejali va ratsional o'rnatilgan teskari aloqa ahamiyatining juda kattaligi aniqlangan, chunki u o'quv faoliyatining aniq va musbat shakllanishini kuchaytiradi. An'anaviy o'qitish jarayonida teskari aloqa mimik harakatlar, tovush intonatsiyasi va boshqalar bilan aniqlanadi. MTda esa u pedagog va o'quvchining ko'pchilik aloqa kanallari bilan ulangani sababli teskari aloqa pedagogik texnologiyaning aniqlangan va rejalashtirilgan elementi hisoblanadi.

Telekonferensiya - tarafdor odamlar jamiyati orasida matnli xabarlar almashish usulidir.

Kompyuterli aloqa bu - aloqani tashkil qilish uchun kompyuterlar va telekommunikatsion tarmoqlaridan foydalanuvchi usullar majmui. Kompyuterli aloqa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tarmoqdan foydalanuvchi pochta, qutili xabarlarni jo'natish imkonini beruvchi elektron pochta;
2. Xabarlarni barcha qatnashchilarga bir vaqtda uzatish imkonini beruvchi telekonferensiyalar;
3. Uzoqdagi axborot manbalariga kira olish, masalan, kutubxona zaxiralariga, ma'lumotlar bazalariga, serverlarga;

MTni rivojlantirish tendensiyasining tayanch holatlari quyidagilardan iborat:

- texnologiyalarni bir vaqtda kengaytirish va yaqinlashtirish;
- o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni o'zgartirish;
- o'quv muassasalari orasidagi munosabatlarni o'zgartirish;
- turg'un an'analarning paydo bo'lishi.

Hozirgi kundagi MT doirasiga kirgan eng asosiy atamalar: tirik interaktiv muhitlar, qisqa to'lqinli televidenie, audio grafika, zichlashtirilgan video, telekonferensiyalar, audio konferensiyalar va boshqalar. Hozirgi interaktiv muhitlar o'quv auditoriyalarining kengayishiga imkon bermoqda.

Yaqin kunlarda MT fazosida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas. Ularning deyarli barchasi raqamlidir. Ularning tarkibiga

gepermedia dasturlari kiradi, bu esa o'quvchining axborot manbaidan foydalanishi va shuningdek INTERNET orqali mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasini va hattoki, ma'lumotlar kompleksini, o'zi nazorat qilish imkonini yaratadi, bu esa kelajakda o'quvchiga video kurslar, audiomateriallar, ma'lumotlar bazasi va boshqa dasturli ta'minot bilan o'z uyi yoki ish joyidan ulanishga imkon yaratadi.

Global kompyuter tarmoqlaridan foydalanuvchi kompyuterli telekommunikatsiyalarni tezlik bilan rivojlanuvchi axborot texnologiyalarining so'nggi ko'rinishidan iborat deyish mumkin.

Telekommunikatsiyaning eng sodda ko'rinishi elektron pochtdan iborat bo'lib, undan katta muvaffaqiyat bilan ta'lim jarayonida foydalanishi mumkin, chunki u:

1. Turli fanlar o'qituvchilarining tajriba almashinishini osonlashtiradi va rag'batlantiradi;
2. Undan foydalanayotgan o'quvchilarning o'quv kursiga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
3. O'quvchilarning kommunikativ amaliyotini kengaytiradi, yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Elektron pochta odatdagilardan o'zining xususiyati bilan farqlanadi:

- a) kompyuter yordamida xatni tayyorlash jarayonini tezlashtiradi va ijodiyashtiradi.
- b) xatni jo'natish va olish ish joyida kompyuter yordamida amalga oshiriladi.
- v) xatning manzilga etkazilishi juda tez (Yer sharining qarama — qarshi nuqtasiga 4 — 5 soatda etkaziladi).

Masofaviy ta'limda elektron pochtdan foydalanish, odatda, telekommunikatsion loyiha shaklida ham olib boriladi. O'quv telekommunikatsiyaviy loyiha ma'lum mavzuga bag'ishlanadi. Uning tarkibiga tayyorlash va uzatish bo'yicha o'quvchilarning turli ko'rinishdagi faoliyatlari va kompyuterli telekommunikatsiyalar bo'yicha o'quv axborotining olinishi va tahlili kiradi.

MT o'quvchilarning o'ziga xos bilimlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p psixologik chegaralarni olib tashlaydi va ularga samimiy bo'lish imkonini yaratadi. O'z fikrlari ustida ishlash mumkinligi o'quvchilarga og'zaki muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon yaratadi. MT shaklining ochiqligi o'quvchilar dunyoqarashining planetalar darajasigacha ko'tarilishiga olib keladi. Elektron pochta yoki INTERNET ning Web—tizimi bilan ishlayotgan har bir insonda barcha qit'alar va kontinentlarning yaqinlik to'g'risidagi sezgisi paydo bo'ladi. MT- bu yetarlicha arzon. Bunda oliy o'quv yurtlaridagi kommunal harajatlar uchun va o'qituvchilarning soatlari uchun to'lamasdan hamda boshqa qiyinchiliklardan holi bo'lgan holda o'z uyi yoki ish joyida o'tirib bilim olishning mumkinligi. Demak, MT zaruriy va nozik ish. Yaqin kelajakda ko'pchilik tarmoqlar orqali o'qish imkoniga ega bo'ladi. Bizningcha, MT va kunduzgi o'quv markazlaridagi ta'limlar bir- birini to'ldirish imkonining yaratilishi hozirgi zamon fan- texnikasining eng buyuk yutug'idir.

1.2. Mavzuning dolzarbligi

Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda o'quv jarayoni kompyuter texnologiyalari yordamida boshqarilmoqda. Talabalarga ta'lim berish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, talabalarni bilimini oshirish, ularni ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi barcha omillarni avtomatlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek masofaviy ta'limda talabalarni qiziqishini orttirish, o'zlari qiziqtirgan savollarga javob olish faol bo'lishida forum va chatlarni ham ahamiyati katta.


Forum ma'lum bir mavzu yuzasidan tyutor va kurs qatnashuvchilari o'rtasida muxokamalarni ta'minlaydi.

Chat tyutor va kurs qatnashuvchilari o'rtasida jonli muloqotni ta'minlaydi.

1.3. Masalaning qo'yilishi

Moodle dasturida Forum va chat tashkil qilish asoslari.

Bizga mazkur kurs ishida moodle dasturida forum va chatlar tashkil vazifasi berilgan. Buning uchun biz moodle tizimida kurs elementlaridan foydalanamiz.



II-BOB. Asosiy qism

2.1 Moodle dasturi haqida

Moodle – Web muhitida o`qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Mazkur tizimda **Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking** kabi ko`plab o`qitish modullar mavjud.

Boshqa **LMS**lar singari **IMS, SCORM** va boshqa standartlarni qo`llab-quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, boshqa **LMS** tizimlarga qaraganda, eng ko`p qo`shimcha plugin va modullari mavjud bo`lgan dasturiy majmua bu **Moodle** dasturiy majmuasidir.

Hozirgi vaqtda dunyoning aksariyat ta'lim muassasalari o`z masofaviy ta'lim tizimlarini tashkil etishda **Moodle** dasturiy majmuasini joriy etmoqdalar.

Ro'yxatga olingan saytlar soni	62,075
Davlatlar	220
Kurslar	8,552,462
Foydalanuvchilar	77,918,769
Ro'yxatga olinganlar	201,686,138
Forum xabarlari	159,059,272
Resurslar	77,155,402
Savollar	350,447,047

Shuningdek, Respublikamizdagi ko`plab ta'lim muassaslari virtual ta'lim muhiti sifatida aynan **Moodle** dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda. Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Virtual ta'lim muhiti” (<http://etuit.uz>), O`zbekiston Milliy universitetining «Ochiq o`quv-axborot markazi», Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi «Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi» (<http://moodle.uzedu.uz>), Toshkent Turin Politehnika universiteti (moodle.polito.uz), Andijon mashinasozlik instituti (<http://moodle.andmiedu.uz>).

Kurs elementlari bilan tanishish.

Boshqa **LMS** tizimlariga qaraganda **Moodle** tizimi orqali masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishda keng imkoniyatlar mavjud:

- ☐ Kurs mazmunini boyitish uchun o'nlab kurs elementlarini mavjudligi;
- ☐ Talabalar uchun resurslarning bir qancha turdaligi;
- ☐ Foydalanuvchi hohlagan tilida ishlay olishligi;
- ☐ Har bir kursda darslar modullarga bo'lib tashkil etilishligi va boshqalar.

Анкета (So'rovnoma) – elementining uch turdagi anketalari masofaviy ta'lim kurslarini baholash va rag'batlantirish uchun xizmat qiladi. Professor-o'qituvchilar anketa moduli yordamida o'z talabalarini yaqindan bilishga yordam beruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishga yordam beruvchi talabalar fikrlariga ham ega bo'lishlari mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu modul savollari oldindan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi. Talabalar uchun maxsus anketa taqdim etishda **Teskari aloqa** xizmatidan foydalanish mumkin.

Чат (Chat) – elementi kurs ishtirokchilari o'rtasida o'zaro yozma muloqot qilish imkonini yaratadi. Kursga kirish imkoni bo'lgan foydalanuvchilar **chat** modulidan ham faol foydalanishlari mumkin. **Chat** modulini yaratishda chatning ishlash vaqtini ko'rsatish zarur. **Chat** faol bo'ladigan vaqtlar oldindan belgilanadi. Masalan: bir marta, har kuni belgilangan vaqtda hamda har hafta belgilangan vaqtda. **Chat** faollashish vaqti hamda undagi xabarlar bilan bog'liq sozlash ishlarini professor-oq'ituvchi **chat**ni yaratish vaqtida belgilaydi. **Chat** modulidan kurs ishtirokchilari bir-birlari bilan ko'rishishning imkoni bo'lmay qolganda foydalanish tavsiya etiladi. **Chat** modulidan quyidagi holatlar yuz berganda foydalanish mumkin:

Talabalar bir-birlari bilan yaqindan tanishish uchun ochiq muloqot interfeysi sifatida;

☐ Kurs e'lonlaridan (yangiliklar **forum**iga a'zo bo'lganlar uchun) xabardor bo'lish uchun;

☐ Kurs mundariyasi yoki kurs ma'lumotlarini muhokama qilish uchun;

☐ Shaxsiy uchrashuvlarda tashkil etilgan muloqotni davom ettirish uchun;

☐ Professor-o'qituvchilar hamkorlik muxitini tashkil etish uchun (yashirin forum shaklida);

☐ Maslahat markazi uchun (professor-o'qituvchilar va talabalar uchun);

☐ “Jumboq”, “Aqliy hujum” kabi mavzular doirasida muhokama-munozara olib borish maqsadida.

**Глоссарий (Izohli lug`at)** – elementi foydalanuvchilarga resurs va ma'lumotlarning tizimlashtirilgan hamda faoliyat doirasida foydalaniladigan lug`at tashkil etish imkonini beradi. Professor-oq'ituvchilar izohli lug`atga fayllarni biriktirish uchun ruxsat berishlari mumkin. Biriktirilgan faylli yozuvlar o'qituvchi tasdig`idan so'ng izohli lug`atda ochiq holatda namoyon bo'ladi. Izohli lug`at 25 yozuvlarini alifbo, kategoriya, kiritilgan sana va muallifi bo'yicha qidirib topish mumkin.

Agar izohli lug`atda avtobog'lanish filtri yoniq bo'lsa, u holda kursda ishlatilgan so'zlar va jumalarga mos kelgan termin haqida ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Izohli lug`atdan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

☐ Atamalarning qo'shma banki sifatida foydalanish;

☐ Yangi talabalarning ismi va shaxsiy ma'lumotlarini kiritishni o'rgatuvchi maydon;

☐ Foydali video, grafikli va audio ma'lumotlarni saqlash uchun umumiy muhit sifatida va boshqa holatlarda.

База данных (Ma'lumotlar ombori)– elementi foydalanuvchilarga barcha joydan yozuvlarni izlash, yaratish va xizmat ko'rsatish kabi imkoniyatlar yaratadi. Yozuv strukturasi o'qituvchilar tomonidan maydonlar soni orqali aniqlanadi. Maydonlarning **menu, matnli soha, bir tanlovli va ko'p tanlovli maydon, qalqib tushuvchi ro'yxat, giperhavola, rasm va fayl yuklovchi maydon** kabi turlari mavjud. Ma'lumotlar ombori ma'lumotlarini ko'rish va tahrirlash visual aks etishi ma'lumotlar ombori qolipi kabi amalga oshiriladi. **База данных** elementidan mavjud kurslarda andoza sifatida hamkorlikda foydalanishi mumkin. Shuningdek, professor-o'qituvchilar ma'lumotlar ombori yozuvlarini import va eksport qilishlari ham mumkin. Agar **База данных** ning avtobog'lanish filtri yoqilgan bo'lsa, u holda ma'lumotlar omborining har qanday yozuvi mavjud kurslarda uchraydigan so'zlar va jummalarga avtomatik bog'lanadi. Professor-o'qituvchilar ma'lumotlar ombori yozuvlarini sharxlashga ruxsat berishi mumkin. Shuningdek, yozuvlar professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan baholanishi mumkin. Natijaviy ballar baholar jurnaliga yozilishida birlashtirilishi mumkin. **База данных** dan quyidagi holatlarda ko'proq foydalaniladi:

☐ Yaratilgan surat, plakat, web sayt yoki ertaklarni talabalar ko`rishlari va o`zaro sharxlashlari uchun.

Семинар (Seminar) – o`quv elementi talabalar ishini o`zaro baholash, jamg`arish, ko`rib chiqish hamda taqriz berish imkonini yaratadi. Talabalar o`z ijodiy ishlarini har qanday fayl ko`rinishida taqdim etishlari mumkin. Masalan, **Word hujjati, Excel elektron jadvali**, shuningdek, **matn maydoni** yordamida matn ko`rinishida ham taqdim etishi mumkin. Taqdim etilgan ma`lumotlar bir qancha baholash mezonlari asosida topshiriq bergan o`qituvchi tomonidan baholanadi. Talabalarning bir yoki bir nechta kursdoshlarini baholash vakolatlari mavjud. Taqdim etilgan ishlar va taqrizlar zarur bo`lsa, yashirin holatda bo`lishi mumkin. Talabalar seminar uchun ikkita bahoga ega bo`ladilar. O`zining ishi uchun baho hamda bajargan ishi uchun kursdoshlari tomonidan berilgan baho. Olingan bahoning har ikkisi ham baholash jurnaliga yoziladi.

**Опрос (So`rov)** – elementi professor-o`qituvchilarga so`rov o`tkazish imkonini beradi. Yaratilgan so`rov tarkibida faqat bitta savol bo`ladi. Javoblar soni esa istalgancha bo`lishi mumkin. So`rov javoblaridan bir yoki bir necha variantlarini tanlash imkoniyati ham mavjud bo`lib, bu imkoniyat so`rov yaratilish jarayonida belgilanadi. So`rov natijalari belgilangan muddatda keyin namoyon bo`lishi yoki umuman natijalar ko`rsatilmasligi mumkin. Natijalar talabalar nomi bo`yicha yoki yashirin holda aks etishi ham mumkin.

So`rov quyidagi hollarda foydalaniladi:

☐ Mavzuni tanlashda tezkor ovoz berish maqsadida;

☐ Xotirani tezda tekshirish uchun;

☐ Talabalarning qaror qabul qilishida yordam berish uchun.

Задание (Topshiriq) – o`quv elementi talabalar ishlarini jamlash, baholash va ularni sharxlash hamda o`qituvchilarga kommunikativ topshiriq qo`shish

imkonini yaratadi. Talabalar har qanday raqamli fayllarni yuborishlari mumkin. Jumladan, **Word hujjatlari, elektron jadvallar, rasmlar, audio** yoki **video** fayllar. Qo'shimcha yoki yordamchi o'qituvchilar talabalardan javoblarini matn muharriri orqali kirishini talab qilishlari mumkin. Tizimdan tashqarida bajariluvchi yoki 27 raqamli fayl bo'lmagan topshiriqlar ham berilishi mumkin. Bunday hollarda topshiriq javobi matn muharriri orqali topshiriladi. Topshiriq o'qituvchi tomonidan baholanib, faylga javob mulohaza ko'rinishida, talaba yuborgan faylni to'g'rilangan shaklida yoki audio fayl ko'rinishida javob qaytarilishi mumkin. Javoblar ballar, foydalanuvchilarning baholash shkalalari yoki "Ilg'or" uslublar yordamida baholanishi mumkin. Natijaviy ko'rsatkichlar baholar jurnaliga kiritiladi.

Wiki – elementi ishtirokchilarga bog'langan web-sahifa to'plamini yaratish va tahrirlash imkonini beradi. **Wiki** individual (faqat muallif o'zgartira olishi mumkin) va hamkorlik (hamma o'zgartirish huquqiga ega) da yaratilishi mumkin. **Wikida** har bir ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarning har bir sahifasi saqlanib qoladi. **Wikidan** quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- ☐ Dars yoki qo'llanmalarga guruhli belgi qo'shish uchun;
- ☐ Kafedra va fakultet a'zolarining umumiy ishlarini rejalashtirish uchun;
- ☐ Murabbiy tomonidan berilgan mavzu bo'yicha talabalar hamkorlikda kitob yaratishlari uchun;
- ☐ Har bir ishtirokchi yozgan satrlari yordamida hamkorlikda tarix zarvaraqalarini yozish yoki she'r yaratish uchun;
- ☐ Tadqiqotlar yoki to'g'rilashlar natijasida erishilgan belgilar asosida shaxsiy jurnal yaratish uchun (Individual **Wiki** da qo'llaniladi).

SCORM (Sharable Content Object Reference Model, «berilgan ob'jektdan hamkorlikda foydalanish uchun namunaviy modeli») – elementi o'quv ob'yektlari uchun muvofiqlikda kelishilgan standart fayllar to'plamini

o`zida mujassam etgan bo`lib, ular arxiv fayl ko`rinishida bo`ladi. **SCORM** paketi bir necha sahifa ko`rinishida bo`lib, fayldan foydalanish davomida fayllar biridan-biriga xarakatlanishi mumkin. Ularning aks etilishi turli xil bo`ladi. Masalan, **qalqib chiquvchi oyna**, **mundarija** hamda **navigatsion tugmalar** ko`rinishida bo`lishi mumkin. **SCORM** paketida odatda savollar va javoblar mujassam bo`ladi. Javoblar uchun berilgan qiymatlar baholar jurnaliga kiritiladi. **SCORM** paketidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- ☐Multimediyali va animatsion fayllarni aks ettirish uchun;
- ☐Baholash uskunasi sifatida.

Kurs resurslarining turi kurs elementlariga qaraganda biroz ozroq miqdor miqdorni tashkil etadi. Kurs resurslari mustaqil o`rganish uchun asosiy adabiyotlar rolini bajaradi. Kurs resurslarining ro`yxatini quyidagi rasmda ko`rishimiz mumkin:

23-rasm. Kurs resurslari ro`yxati.

Папка (Papka) – resursi professor-o`qituvchilarga sahifaga yuklangan bir necha fayllarni ixcham ko`rinishda ya`ni bir papkada saqlash imkonini beradi. Fayllarni papkada saqlash orqali sahifani yuqoridan-pastga yoki aksincha varaqlashni oldini oladi. **Папка ZIP**-arxiv fayllarini ham yuklash imkoniyati bo`lib, ulardan foydalanishda arxivdan chiqariladi.

Папка quyidagi holatlar uchun qo`llaniladi:

- ☐ Bir mavzuga oid seriyali fayllarni yuklash uchun (talabalar loyihalarni PDF yoki grafik formatda taqdim etishida);
- ☐ Professor-o`qituvchilar uchun umumfoydalanishga ruxsat etilgan manbalarni saqlash uchun (papkada faqat professor-o`qituvchilar foydalanishlari mumkin bo`lib, papka talabalarga ko`rinmaydi).

Пояснение (Izoh) – moduli kursning boshqa element yoki resurslariga havola tashkil etish, multimediyali va matnli ma`lumot kiritish imkonini beradi.

Kursning tashqi ko`rinishi yaxshilashda **Пояснение** resursi universal modul hisoblanadi.

Izoh resursidan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

☐ Kurs bo`limiga qisqa ta`rif qo`shish uchun;

☐ Ichki video va audio fayllarni sahifada ko`rish uchun;

☐ Faoliyatda bajarilgan katta ishlarni bo`limlarga ajratish uchun (sarlavha va rasmi bilan).

Книга (Kitob) – moduli professor-o`qituvchilarga kitobga o`xshash bob va bo`limlariga ega bo`lgan ko`p sahifali resurs yaratish imkonini beradi. **Книга** resursida bo`limlarga ajratish mumkin bo`lgan ulkan matn yoki media fayllarni ham joylashtirish mumkin.

Книга modulidan quyidagi holatda foydalanish mumkin:

☐ O`quv materiallarni alohida bo`lim ko`rinishida tasvirlash uchun;

☐ Ma'lumotnoma sifatida;

☐ Talabalarga topshirilgan ishning namunaviy andozasi sifatida.

Страница (Sahifa) – moduli professor-o`qituvchilarga matn muharriri yordamida web-sahifa yaratish imkonini beradi. **Страница** moduli matn, rasm, audio, video, web-havola va boshqa turdagi (Masalan: **Google Maps**, **HTML**) ma'lumotlarni o`z ichiga olishi mumkin. **Страница** modulidan foydalanishning **Файл** modulidan ko`ra samaradorligi ko`proq hisoblanadi. Materiallarni **Страница** moduliga joylashtirish orqali mobil qurilmalar uchun tezroq ishlashni ta'minlash 30

mumkin. Katta hajmdagi materiallarni joylashtirishda **Страница** moduli o`rniga **Книга** modulidan foydalanish tavsiya etiladi.

Страница modulidan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

☐ Kurs dasturi rezyumesi yoki kurs muddati va shartlarini e`lon qilish uchun;

☐ Foydalanilayotgan turli xil video va audio fayllarni izohlash uchun.

Файл (Fayl) – moduli professor-o`qituvchilarga fayllarni kurs resursi sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Yuklangan fayllar kurs tarkibida ko`rinadi. Talabalar esa yuklangan fayllarni ko`chirib olish imkoniga ega bo`ladilar. **Файл** moduli tarkibiga **HTML**, **flash** yoki **grafik** fayllarni ham biriktirish mumkin. Yuklangan fayllarni ochish uchun talabalar kompyuterida fayllarga mos dasturiy ta`minot bo`lishligi zarur ekanligiga e`tibor berish joiz. **Файл** modulidan quyidagi holatlarda foydalanish tavsiya etiladi:

☐ Ma`lumotlardan ommaviy foydalanish uchun;

☐ Kurs resursi sifatida mini-saytlarni biriktirish uchun;

☐ Belgilangan dasturiy mahsulotlarda (**psd-Adobe PhotoShop** va x.k.) tayyorlangan fayllarni biriktirishda. Talabalar mazkur loyihalarni tahrirlab va taqdim etish orqali baho olishlari kerak.

Гиперссылка (URL) – moduli professor-o`qituvchilarga kurs resurs sifatida qo`llaniluvchi web-havolalarini joylash imkonini beradi. **Гиперссылка** lar Internetda himoya qilinmagan ixtiyoriy resursga (Masalan, hujjatlar va rasmlar) bog`langan bo`lishi mumkin. **Гиперссылка** web saytlarning bosh sahifasiga emas balki, aniq web-sahifaga bog`lanishi zarur. Professor-o`qituvchilar resurs sifatida **YouTube**, **UzDisc**, **Wikipedia**, **Gmail+** kabi saytlarning ma`lumotlaridan foydalanishlari mumkin. **Гиперссылка** larni aks ettirishni sahifa ichiga joylashtirish va yangi oynada ochish variantlaridan birini tanlashi mumkin. Zarur

bo'lganda sahifaga qo'shimcha ma'lumotlarni yuborish mumkin. Masalan, talabani nomi. Shuni ta'kidlash joizki, **URL**-manzillarini faqat mazkur resursda emas balki, matn muharririga ega bo'lgan barcha resurslarga ham qo'shish mumkin.

kurs elementlarini yaratish va ular bilan bajariladigan barcha amallarni o'rganamiz.

Добавить файл sahifasining maydonlarini to'ldirish **Добавить Страница** sahifasiga o'xshash bo'lib, u faqatgina quyidagi o'zgarishlar bilan farqlanadi.

Ushbu modul turli tipdagi fayllar bilan ishlash qobiliyati mavjud bo'lganligi uchun ham unga fayllarni yuklash talab etiluvchi maydoniga ega. Ushbu maydonga fayllarni yuklash ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi usuli sichqoncha yordamida **Drag&Drop** usuli orqali, ikkinchisi esa maydondagi **Добавить** tugmasini bosish orqali.

Foydalanuvchilar yuklangan fayl qanday hajm va kengaytmaga ega ekanligini oldindan bilishlarini ta'minlash uchun maxsus **Выводить размер** hamda **Выводить тип** maydonlariga belgi qo'yish tavsiya etiladi.

Kerak sozlash ishlari nihoyasiga yetkazilgandan so'ng **Сохранить и вернуться к курсу** tugmasini bosish mumkin.

2.2 Moodle dasturida forum tashkil qilish asoslari

Har qanday kurs yaratilganda uning tarkibida **Yangiliklar forumi** elementi mavjud bo`ladi **Yangiliklar forumi** elementi kursdagi yangliklar bo`yicha kurs ishtirokchilari o`rtasida muzokara qilish uchun xizmat qiladi.

Kursga kurs elementlari va kurs resurslarini qo`shish orqali masofaviy ta`lim tizimini ishchi holatga keltirish mumkin.

Buning uchun kursni yaratgan professor-o`qituvchi **Taxrirlash** tugmasini bosishi kerak

Forumda mavzu qo`shish huquqi berilgan vaqtda o`z mavzuingizni qo`shishingiz mumkin. Forum(lar)ga o`tish ssilkalari kurs bo`limlarida va kurs elementi blogida berilgan. Forumlarda ishtrok etishni istasangiz siz **Kurs elementlari** blogidan **Forumlar** ssilkasi yoki kurs bo`limlarini o`zida belgili forumga o`tish ssilkalari orqali forum sahifasiga o`tishingiz mumkin. Yuqorida e`tibor bergan bo`lsangiz forumlar **Umumiy** va **Ta`lim forumlari** turlari mavjud

2.3 Moodle dasturida chat tashkil qilish asoslari

Chatlar bu tyutor va kurs qatnashuvchilari bilan jonli suxbatni amalga oshiradi.

Chat – elementi kurs ishtirokchilari o`rtasida o`zaro yozma muloqot qilish imkonini yaratadi. Kursga kirish imkoni bo`lgan foydalanuvchilar **chat** modulidan ham faol foydalanishlari mumkin. **Chat** modulini yaratishda chatning ishlash vaqtini ko`rsatish zarur. **Chat** faol bo`ladigan vaqtlar oldindan belgilanadi. Masalan: bir marta, har kuni belgilangan vaqtda hamda har hafta belgilangan vaqtda. **Chat** faollashish vaqti hamda undagi xabarlar bilan bog`liq sozlash ishlarini professor-oq`ituvchi **chat**ni yaratish vaqtida belgilaydi. **Chat** modulidan kurs ishtirokchilari bir-birlari bilan ko`rishishning imkoni bo`lmay qolganda foydalanish tavsiya etiladi. **Chat** modulidan quyidagi holatlar yuz berganda foydalanish mumkin:

Talabalar bir-birlari bilan yaqindan tanishish uchun ochiq muloqot interfeysi sifatida;

☐ Kurs e`lonlaridan (yangiliklar **forum**iga a`zo bo`lganlar uchun) xabardor bo`lish uchun;

☐ Kurs mundariyasi yoki kurs ma`lumotlarini muhokama qilish uchun;

☐ Shaxsiy uchrashuvlarda tashkil etilgan muloqotni davom ettirish uchun;

☐ Professor-o`qituvchilar hamkorlik muxitini tashkil etish uchun (yashirin forum shaklida);

☐ Maslahat markazi uchun (professor-o`qituvchilar va talabalar uchun);


☐ “Jumboq”, “Aqliy hujum” kabi mavzular doirasida muhokama-munozara olib borish maqsadida.

2.3. Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari kursida foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish

Kurs qatnashuvchilari (o'qituvchilar ham, talabalar ham) saytdan foydalanuvchi sifatida ro'yhatdan o'tgan bo'lishi kerak.

Moodle tizimi foydalanuvchilarni ro'yhatdan o'tkazishning bir nechta usullarini qo'llab-quvvatlaydi: electron pochta orqali foydalanuvchi o'zi registratsiya bo'lishi mumkin yoki administrator yordami orqali LDAP yoki boshqa usul bilan ro'yhatdan o'tkazish mumkin.

“Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari” kursiga quyidagi talabalar ro'yxatdan o'tkazildi:



The screenshot shows the Moodle 'Enrolled users' page. The browser address bar indicates the URL is localhost/enrol/users.php?id=4. The page title is 'Masofaviy talim texnologiyalari va v...'. The breadcrumb trail is 'Uyga > Mening kurslarim > Miscellaneous > MTTVV > Foydalanuvchilar > Enrolled users'. The left sidebar contains a 'Navigatsiya' menu with options like 'Uyga', 'Uy sahifam', 'Sayt sahifalari', 'Mening profilim', 'Current course', and 'MTTVV'. The main content area is titled 'Enrolled users' and features a table of enrolled users. The table has columns for 'Ism / Familiya / e-mail', 'Oxirgi chiqish', 'Rollar', 'Группы', and 'Enrolment methods'. There are also buttons for 'Izlash', 'Enrolment methods', 'Barchasi', 'Rol', 'Barchasi', 'Filter', 'Tozalash(dastlabki holatiga qaytarish)', 'Enrol users', and 'Enrol cohort'.

Ism / Familiya / e-mail	Oxirgi chiqish	Rollar	Группы	Enrolment methods
Feruza Abdullayeva fjfhg@mail.ru	15 ch 33 min	Talaba X Manager		Manual enrolments from Thursday, 18 May 2016, 12:00 AM
Iroda Iskandarova iroda@gmail.ru	2 soniya	Talaba X Manager		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Naima Jabborova naima@gmail.ru	Hech qachon	Non-editing teacher X Talaba X		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Sardor Nijozmetov sardor@gmail.ru	17 ch 32 min	Talaba X Manager		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Fotima Ochilova fotima@gmail.ru	Hech qachon	Talaba X		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Oynura Qodirova oynura@gmail.ru	Hech qachon	Talaba X		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Asal Qoshoqova asal@gmail.ru	Hech qachon	Talaba X		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Dilafuz Xayitboyeva diliya@gmail.ru	16 ch 52 min	Talaba X Manager		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM
Zilola Xayitboyeva behfhfhfr@mail.ru	15 ch 13 min	Talaba X Manager		Manual enrolments from Thursday, 19 May 2016, 12:00 AM

Xulosa

Ushbu kurs ishi davomida masofaviy ta'limning dasturiy vositasi hisoblangan "Moodle" da kurs elementlari "Forum" va "Chat" larni tashkil qildim.


Chatni tashkil qilish orqali tyutor va qatnashuvchilarning jonli muloqoti ta'minlandi.

Forum tashkil qilish jarayonida tyutor va qatnashuvchilarni ma'lum bir mavzu yuzasidan muxokamlar olib borildi. Forumning afzallik tarafi shundaki u masofaviy ta'limda qatnashuvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Parpiev, A.Maraximov, R.Hamdamiyov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti.T. 2008, 196 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.Toshkent;"Sharq", 1997, 20-29 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi «Komp yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni.
5. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli «Komp yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
6. SH.Yusupova, F.Mashoripova. Masofaviy talim texnologiyalari va vostalari fanidan laboratoriya mashg'uloti.
7. Quyidagi internet manbalardan foydalanildi:
8. •<http://dl.ubtuit.uz>-TATU Urganch filiali virtual ta'lim tizimi
9. <http://www.ziyonet.uz>

Ilova



The screenshot displays a web browser window showing a Moodle chat session. The top window is the main chat interface, and the bottom window is a chat log or history view.

Top Window (Main Chat Interface):

- Header:** Moodle logo, navigation menu (Uyg'a, Mening kurslarim, Miscellaneous, MTTVV, General, Chat, Chat-sessiya), and chat title "Iroda Iskandarova nom bilan kirdingiz (chiqish)".
- Navigation Menu (Left):**
 - Uyg'a
 - Uy sahifam
 - Sayt sahifalari
 - Mening profilim
 - Current course
 - MTTVV
 - Qatnashuvchilar
 - Badges
 - General
 - News forum
 - ДО-кыровой работы 2015-2016
 - ... vositalari fanini o'rganish uchun o'quv qo'llanma
 - Moodle tizimi imkoniyatlari
 - Masofaviy ta'lim
 - Chat
 - Chatga kirish
 - Fremlar(Aload)

- Chat Area (Center):**
- Thursday, 19 May 2016, 7:05 PM --> Thursday, 19 May 2016, 7:14 PM
- Messages:
 - 33:05: Sardor Niyozmetov chatga kirdi
 - 51:06: Sardor: s
 - 29:08: Sardor: salom
 - 39:11: Zilola Xayitboyeva chatga kirdi
 - 58:11: Zilola: salom
 - 06:14: Zilola Xayitboyeva chatdan chiqib ketdi
- Buttons: "Davom ettirish" (Continue)

Bottom Window (Chat Log/History View):

- Header:** "MTTVV: Chat" title bar.
- Chat Log:**
 - 26:15 Iroda Iskandarova Iroda Iskandarova chatga kirdi
 - 36:15 Zilola Xayitboyeva Zilola Xayitboyeva chatdan chiqib ketdi
- User List (Right):**
 - Iroda Iskandarova

The bottom window also shows a URL bar with "http://localhost/user/view.php?id=28&course=4" and a "Send" button.

MTTVV: Chat - Mozilla Firefox

MTTVV: Chat

localhost/mod/chat/gui_ajax/index.php?id=1

43:15 Iroda Iskandarova Iroda Iskandarova chatga kirdi

15:16 Iroda Iskandarova qalaysizlar talabalar

30:16 Iroda Iskandarova qanday savollar bor

52:16 Iroda Iskandarova savol bo'lsa berishingiz mumkin

Iroda Iskandarova

Send Mavzular »

MTTVV: Masofaviy ta'lim texnologiy... +

localhost/mod/forum/discuss.php?id=1#p3

moodle

Dilafuz Xayitboyeva nom bilan kirdingiz (chiqish)

Uyga » Mening kurslarim » Miscellaneous » MTTVV » General » News forum » ...a'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan

Shajaraviy

Muhokamani quyidagiga olib o'tish... Ko'chirish (joyini almashtirish)

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan

Iroda Iskandarova - Thursday, 19 May 2016, 1:54 PM dan

Salom o'qishlar yaxshimi?

Tahrirlash | O'chirish | Javob berish

Re: Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan

Dilafuz Xayitboyeva - Thursday, 19 May 2016, 8:22 PM dan

Yaxshi rahmat. kurs ishini nishattiz?

Yaratuvchini ko'rsatish | Tahrirlash | Ajratish | O'chirish | Javob berish

Uyga

- Uy sahifam
- Sayt sahifalari
- Mening profilim
- Current course
- MTTVV
 - Qatnashuvchilar
 - Badges
- General
 - News forum
 - ...a'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan
 - ДО-куровой работы 2015-2016
 - ...vositalari fanini o'rganish uchun o'quv qo'llanma
 - Moodle tizimi

http://localhost/mod/forum/post.php?edit=3

MTTVV: Masofaviy ta'lim texnologiy... x

localhost/mod/forum/discuss.php?id=1#p7

Google

Iroda Iskandarova nom bilan kirdingiz (chiqish)

Uyga » Mening kurslarim » Miscellaneous » MTTVV » General » News forum » ...a'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan

Shajaraviy

Muhokamani quyidagiga olib o'tish... | Ko'chirish (joyini almashtirish)

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan
Iroda Iskandarova - Thursday, 19 May 2016, 9:55 PM dan

Salom o'qishlar yaxshimi?

Tahrirlash | O'chirish | Javob berish

Re: Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan
Dilafuz Xayitboyeva - Thursday, 19 May 2016, 8:30 PM dan

Yaxshi rahmat. kurs ishini nishattiz?

Yaratuvchini ko'rsatish | Tahrirlash | Ajratish | O'chirish | Javob berish

Re: Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan
Feruza Abdullayeva - Thursday, 19 May 2016, 9:04 PM dan

Salom Dilafuz biz Iroda bilan ushbu rasmini muxokama qilyapmiz. Siz xam qo'shiling.

Navigatsiya

Uyga

- Uy sahifam
- Sayt sahifalari
- Mening profilim
- Current course
 - MTTVV
 - Qatnashuvchilar
 - Badges
 - General
 - News forum
 - ...a'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan

ДО-курсовой работы 2015-2016

...vositalari fanini o'rganish uchun o'quv qo'llanma

Moodle tizimi imkonlari

MTTVV: Masofaviy ta'lim texnologiy... x


localhost/mod/forum/discuss.php?id=1#p7

Google

Re: Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan
Feruza Abdullayeva - Thursday, 19 May 2016, 9:01 PM dan

Salom, O'qishlar yaxshi. Man kurs ishini ertaga topshiraman. Sizchi?

Ushbu rasimga fikringiz?



Yaratuvchini ko'rsatish | Tahrirlash | Ajratish | O'chirish | Javob berish

Re: Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan

Loglar

Rezerov nusxa olish

Tiklash

Subscription mode

Abonentlarni ko'rsatish

Kurs boshqaruvi

Rolni ...ga o'tkazish

Profilim sozlashlari

Sayt boshqaruvi


Izlash

MTTVV: Masofaviy ta'lim texnologiy...

localhost/mod/forum/discuss.php?id=1#p7

Google

Izlash



Yaratuvchini ko'rsatish | Tahrirlash | Ajratish | O'chirish | Javob berish



Re: Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fani yuzasidan
Iroda Iskandarova - Thursday, 19 May 2016, 9:21 PM dan

Bu rasmga fikrim shundan iboratki: bu rasm masofaviy ta'limga oid surat hisoblanadi. Bunda Oliy Ta'lim Muassalari o'zaro online tarzda "Masofaviy ta'lim"ni amalga oshirmoqda.

Yaratuvchini ko'rsatish | Tahrirlash | Ajratish | O'chirish | Javob berish

Iroda Iskandarova nom bilan kiringiz (chiqish)



100%